

XXI ASR O'ZBEK NASRIDA MINI ROMAN JANRI XUSUSIYATLARI ("NA'MATAK") MINI ROMANI MISOLIDA

Ummatova Nigora Davronovna

O'zbekiston Milliy Universiteti Jurnalistika va O'zbek filologiyasi
fakulteti 2-kurs talabasi

E-mail: nigoraummatova80@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17568327>

Annotatsiya: Maqolada XXI asr o'zbek nasrida mini roman janrining xususiyatlarini iste'dodli ijodkor Ulug'bek Hamdam ijodida uchraydi. Ulug'bek Hamdamning "Na'matak" mini romanida: roman tushunchasiga ta'rif, asardagi voqealar, asar mazmuni, o'zbek adabiyotshunosligida roman tushunchasi hamda romanga xos xususiyatlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mini roman, Ulug'bek Hamdam, Na'matak, o'zbek nasri, XXI asr, roman janri, adabiyotshunoslik, ruhiyat, syujet, avlodlar.

Roman janri haqida umumiy tushuncha va xususiyatlari

Kitobxon roman janrida shaxs ruhiyatini keng qamrovda ifodalab, hajm jihatdan hikoya va qissadan ajralib turuvchi butunlikni tushunadi. Ammo bu aksariyat romanlargagina xosdir. Sababi shundaki, ba'zi romanlar hajman qissadan unchalik farq qilmasligi, bir syujetdan tarkib topib, voqealar vaqt jihatdan qisqa vaqt mobaynida davom etishi mumkin. Masalan, taniqli yozuvchi Ulug'bek Hamdam qalamiga mansub "Na'matak" mini romani. Asar hajmi jihaddan hikoyaga juda yaqin bo'lsada, juda ham keng qamrovli mini roman hisoblanib, uch davrni ya'ni, uch avlodni hikoya qiladi. Bunday vaziyatda, hech shubhasiz, kitobxon tasavvurida unda "Roman nima?"- degan savol tug'ilishi tabiiy. Adabiyotshunos professor D.Quronov¹ "Adabiyotshunoslik nazariyasi" kitobida roman haqida shunday deydi: Roman masalasiga yondashishda eng avval "roman" istilohi qaysi ma'noda qo'llanilayotganini aniqlab olishimiz zarur. Roman (roman-lotin tilda emas, roman tillaridan birida yozilgan ma'nosida) zamonaviy adabiyotda epik turning yirik hajmli janridir.

Darhaqiqat, roman haqida so'z borganda, odatda, uning hajman kattaligi, hayotni keng ko'lamda tasvirlashi, qahramon hayotidan katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lab talqin qilishi, ko'plab va turfa kishilar taqdirleri orqali jamiyatning joriy holatini aks ettira olishi, murakkab va ko'p chiziqli syujetga ega bo'lishi kabi janr xususiyatlari qayd etiladi.

Romanning bugunini tushunish, unga xos belgilarni aniqlash uchun, uning qachon va qayerda paydo bo'lganligi, ya'ni tarixiga murojaat qilish kerak. Ilk romanlar milodiy XII-XIII asrlarida roman tillarida so'zlovchi xalqlar orasida vujudga kelgan. "Roman tillari" tushunchasi Rimga tegishli degan ma'noni anglatib, lotin tili asosida shakllangan ispan, italiyan, fransuz, portugal tillarini o'z ichiga olgan. Ovrupadagi deyarli barcha davlatlar uchun lotin tili rasmiy va badiiy til sanalgan. Biroq shunday bo'lsada, aholining asosiy qismi bu tilni bilishmagan. Shu boisdan, yurtdagi quyi tabaqa vakillariga o'z tilini qulayroq o'rgatish maqsadida romanlar yozishga ehtiyoj sezilgan. An'anaviy romanlar hajmi va syujeti bo'yicha hikoya va qissadan farq qilsa-da, mini-romanlar yangi hodisa. Jahon adabiyotida sarguzasht va ishqiy syujetlarga asoslangan misollar mavjud, ammo o'zbek nasrida "Na'matak" birinchi namunalardan.

¹. Quronov.D Adabiyot nazariyasi asoslari. -Toshkent:Navoiy Universiteti ,2018.

“Na’matak” mini-romanining mazmuni va tahlili

Ulug’bek Hamdamning „Na’matak” romanini mutoala qilgan odam, bir qarashda uning tub mazmun mohiyatini uncha anglay olmasligi mumkin, ammo asarni tubdan tahlil qiladigan bo’lsak, uning zamirida qanday yuksak ma’no yotganligini anglab olamiz. “Na’matak” mini romaniga keladigan bo’lsak, bu janr o’zbek adabiyoti uchun yangi hodisa. Shu paytgacha bu tipdagi asar yaratilmagan. Aslida, bunday roman shakli jahon adabiyotida mavjud. Jahon adabiyotidagi mini romanlar, asosan, sarguzasht yoki ishqiy syujetlar asosida yozilgan. Roman shunday jumla bilan boshlanadi:

“Qanday ko’z-la boqsa, odam olamga,

Shunday javob aylar olam odamga”.²

(Ulug’bek Hamdam, “Na’matak” mini-romanidan)

Ushbu epigraf orqali “Na’matak” asarining falsafiy mazmunini ochib beradi. Unda muallif inson va olam o’rtasidagi ruhiy aloqani, inson nigohi orqali hayotga bo’lgan munosabatini ko’rsatadi. Aynan shu teran so’zlar romanning syujet qismlarini birlashtirib turadi va u haqida Sh.Turdimov³: “Xuddi xalq qo’shiqlaridek bir hikmat naqorot bo’lib uch qismni birlashtirib, bog’lab turibdi, yozuvchi hikmatga badiiy maqsadni ochuvchi kalit shaklida voqelik tasviri va olganligi bejiz emas”- deydi. Asar ikki qo’shnining o’rtasida bir na’matak o’sib chiqishi bilan boshlanadi-bu ekspozitsiyasiya va ramziy markaz. Na’matak mehr-oqibat, taqdir va insoniy munosabatlarni ifodalaydi. Aynan shu o’simlik ko’rsatiladi. Asarda na’matakning paydo bo’lib qolishi ekspozitsiya o’rnida keladi: “buni hech kim atayin ekan emas, u o’z-o’zidan ungan, yog’e, juda-a bunday desak bo’lmas-ov, xuddi sirli taqdir yanglig’ qo’shnilarning o’rtasida mehr-oqibat juda chiroyli tasvirlangan. Asarni bir o’qiganda tushunish biroz mushkul bo’lsada, Kitobxon asarni o’qish chog’ida zamon bilan bog’langan avlodlararo munosabatlar bitigi haqida muayyan xulosa chiqarishga undaydi. Mini roman mohiyatida e’tiborli jihatlaridan biri shundaki, dastlabki bobda go’zallikka oshuftalik hissi muhabbat motiviga uyg’un tarzda keladi. Muhabbat hissi shunchalik qudratli kuchga egaki, u avvalo kishi qalbini g’uborlardan poklab, atrof olamga o’zgacha, nafasat qonuniyatiga qarashga undaydi.

Romanning ikkinchi qismidagi avlod timsolida esa muhabbat tuyg’usidan uzoqda, nafs balosiga muhtalo bo’lgan, ma’naviy tubanlikka yuz tutgan kishilar qiyofasini yaratadi. Bunday birinchi avlod ruhiyatidan, qismatidan tubdan farq qiluvchi qismat bitigi kitobxonni mushohada yuritishiga, zamon bilan bog’langan avlodlararo munosabatlar bitigi haqida muayyan xulosa chiqarishga undaydi. Asarda ishonch, umid, xato qilish va o’zgarish haqida saboqlar keltiriladi. Qahramon o’zi o’rganmagan saboqlarni hayotidan va insonlardan olishga intiladi, bu esa o’zlashtirishga yordam beradi. Ulug’bek Hamdamning “Na’matak” asari, yirik badiiy mahorat bilan yozilgan bir asar bo’lib, o’quvchiga nafaqat qiziqarli bir hikoya taqdim etadi, balki hayot haqidagi chuqur mulohazalar va saboqlarga chorlaydi.

Yo’l, yillar, asrlar, davrlar bosib o’tilib, avlodlar yangilanadi va uchinchi avlod ham yangidan nish urib o’sgan na’matak atrofida parvona bo’lishadi. Biroq bu avlod na’matak tufayli ajdodlari o’rtasida bo’lib o’tgan munosabatlardan voqif bo’lishsa-da, butaning nomini bilishmaydi. Muallifning bunday yo’l tutishida ham ramziy ma’no mujassam. Boisi, bu yosh hayotida na’matak nechog’li ahamiyatga ega bo’lishi noma’lum. Mehr-u muhabbat ila

² . Ulug’bek Hamdam. “Na’matak” //Sharq yulduzi 2013,3-son ,1-2 bet.

³ . Ulug’bek Hamdamning “Na’matak” mini –romanining badiiy tahlili. Abdullayeva Barchinoy Ahror qizi Akademnashr.2024.

munosabatda bo'lgan ajdodlarining farovon hayotimi yohud badnafslilik qurboniga aylangan ikkinchi avlodning ayanchli qismati? Qay bir yo'lni tanlash ixtiyorining yosh avlodga topshirilishi orqali asar insoniyatni nafs illatlarining fojiiyaviy oqibatlaridan ogoh etadi. Demak, har uchala holatga ham Na'matak sababchimi?

Bu savolga, yuqorida keltirilgan: "Qanday ko'zla boqsa odam olamga, Shunday javob aylar olam odamga" epigrafi javob bo'la oladi. "Qanday ko'z-la boqsa,odam olamga" degan satrda insonning dunyoni qanday ko'rishi-uning ichki dunyosiga,ruhiy holatiga bog'liq ekani tasvirlanadi.Agar inson olamga ezgulik , mehr va muhabbat bilan boqsa, dunyo ham unga shu tarzda javob beradi.Bu –koinot va inson o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasidir. Ikkinchi satrga to'xtaladigan bo'lsak, "Shunday javob aylar olam odamga" satrida esa hayotning o'zaro aks ta'siri ifodalangan: kim qanday niyat qilsa, shunday natijani oladi. Bu hol asarda falsafiy mushohada sifatida berilgan bo'lib, o'quvchini hayot, mehr va ezgulik haqida o'ylashga chorlaydi. Ulug'bek Hamdamning badiiy uslubi bu joyda ramziy va lirizmga boy: olam-jonli mavjudot sifatida tasvirlanadi, u inson tuyg'ulariga befarq emas. Muallif tilida soddalik, lekin ma'noda chuqurlik bor.

Roman janrining insoniy va ijtimoiy ahamiyati

Roman insonning taqdiri, hayotdagi qiyinchiliklar va insoniy qadriyatlarni chuqur tasvirlaydi. Ulug'bek Hamdam o'zining badiiy uslubi orqali personajlarning ichki kechinmalarini, ularning orzu va umidlarini aniq va jonli ifoda etadi. "Na'matak"-kichik hajmdagi, ammo mazmunan boy asar bo'lib, o'quvchini hayot haqidagi fikrlar, insoniylik va mehr-muhabbatga bo'lgan e'tibor bilan o'ylashga chorlaydi. Yozuvchi bu orqali insonlar hozirda o'z taqdirlariga, turli sinovlarning chorasini topishga harakat ham qilmay qo'yganligini, shunchalik darajada befarq bo'lib ketishayotganini uqtirmoqchi bo'ladi.

Maqola shuni ta'kidlaydiki, "Na'matak"-kichik hajmli, ammo mazmunan boy asar. U o'quvchini hayot, insoniylik va mehr-muhabbat haqida chuqur o'ylashga chorlaydi. Yozuvchi zamonaviy befarqlikni tanqid qiladi: odamlar taqdir va sinovlarga qarshi kurashmayapti. Mini-roman janrni baholashda hajm emas, balki muhit va davrni qamrab olish muhim. Bu asar o'zbek nasriga yangi nafas kiritadi, avlodlararo munosabatlar va axloqiy dilemmalarni dolzarb qiladi. Maqola adabiyotshunoslikka hissa qo'shib, Ulug'bek Hamdam ijodini yuqori baholaydi. Ushbu fikrlar orqali biz rommani qanday farqlash lozimligini, uning garchi yirik hajmli bo'lishiga qaramay, hayotni keng ko'lamda tasvirlovchi, qahramonni davr bilan birgalikda talqin qilishuvchi turfa xil taqdirlar orqali jamiyatdagi voqealar ochib berishiga guvoh bo'lamiz. Shunday ekan romanning janriga qarab emas, balki asardagi ma'lum bir muhit va davrni qamrab olishiga qarab baho berishimiz darkordir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Quronov D.Adabiyot nazariyasi asoslari .-Toshkent:Navoiy Universiteti,2018. 379-bet.
2. U. Hamdam. "Na'matak" //Sharq yulduzi 2013,3-son,1-2 bet.
3. Ulug'bek Hamdam "Na'matak" mini-romani 2024.
4. Ulug'bek Hamdamning "Na'matak " mini-romanining badiiy tahlili.Abdullayeva
5. Barchinoy Ahror qizi. Akademnashr. 2024.